

UZBEKISTAN LAW REVIEW



ISSUE 2
2025

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ
ТАҲЛИЛИ**

UZBEKISTAN LAW REVIEW

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ	SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL	НАУЧНО АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
--------------------------------------	--	--

**2025
№2**

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

БОШ МУҲАРРИР:

Гулямов Саид Саидахарович — юридик
фанлари доктори, профессор.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович — ю.ф.д.,
профессор.

Ҳўжаев Шохжаҳон Акмалжон ўғли — юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Оқюлов Омонбой — ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёқубович — ю.ф.н., профессор.

Махкамов Отабек Мухтарович — ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбаевна — ю.ф.д., доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоевич — ю.ф.д., доц.

Беков Ихтиёр — ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Сохибжонович — ю.ф.д., проф.
в.б.

Ҳазратқулов Одилбек Турсунович — юридик
фанлари номзоди, доцент.

Самарходжаев Ботир Билялович — ю.ф.д.,
профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович — ю.ф.д.,
профессор.

Нарзиёв Отабек Саъдиевич — ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна — юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун қуйидагиларга мурожаат этиш
сўралади:

**Гулямов Саид Саидахарович,
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович**
ТДЮУ, Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси,
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,
Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон
нусхаси Интернетдаги www.library-tsul.uz ёки
www.lawreview.uz сайтида жойлаштирилган.

**Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси
Вазирлар Маҳкамасининг Олий Аттестация
комиссияси журналлари рўйхатига киритилган.**

Ушбу журналда баён этилган натижалар, хулосалар,
талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб,
Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик
университети сиёсати ёки фикрини акс эттирмайди.

2025 йилда нашр этилди.

Муаллифлик ҳуқуқлари Тошкент давлат юридик
университетига тегишли. Барча ҳуқуқлар ҳимояланган.
Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва
қўлайтириш Тошкент давлат юридик университети рухсати
билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент
давлат юридик университетига мурожаат этилади.
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ
кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**

Наشريёт муҳаррири: **Н. Ниязова**

Техник муҳаррир: **Д. Козимов**

Лицензия № 02-0074

Босишга рухсат этилди — 28.06.2025

Наشريёт ҳисоб табоғи — 5

«IMPRESS MEDIA» босмаҳонасида босилди

Адади — 100 нусха.

ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ

2/2025

Azizjon Xujanazarov

Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat va huquq nazariyasi kafedrası
dotsenti v.b., yu.f.f.d (PhD)

NORMA IJODKORLIGI VA BOSQICHLARI YUZASIDAN NAZARIY HAMDA HUQUQIY TAHLIL

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola doirasida mamlakatimizda norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish asosiy maqsad qilib olingan. Shuningdek, norma ijodkorligi faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar ilmiy maqola bo'yicha tadqiqot predmeti hisoblanadi. Tadqiqot maqsadi va predmetidan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, bugungi kunda "norma ijodkorligi" tushunchasi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsada, uning yagona ta'rifi borasida aniq ilmiy konsepsiya shakllanmagan. Shu bilan birga milliy qonunchilikda ham ushbu tushunchaning huquqiy tavsifi hamda unga oid huquqiy normalar ishlab chiqilmagan. Qayd etiganlar ushbu mavzuning bugungi kunda yurisprudensiya uchun dolzarbligini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqib, mazkur maqola doirasida "norma ijodkorligi" tushunchasi borasidagi ilmiy va huquqiy nazariyalar tahlil qilinib, mazkur tushuncha va uning bosqichlari yuzasidan mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqola doirasida mazkur tushunchaning "huquq ijodkorligi" va "qonun ijodkorligi" tushunchalaridan farqli jihatlar soha olimlari qarashlari bilan o'zaro ilmiy bahs va tahlil asosida ilmiy jihatdan atroflicha asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: norma, qonun, huquq, davlat, konsepsiya, tartib, ekspertiza, qonunchilik.

Аннотация: Основной целью данной научной статьи является разработка предложений и рекомендаций, направленных на совершенствование нормативно-правовой базы в нашей стране. Также предметом исследования для научной статьи являются нормативно-правовые документы, юридически регулирующие деятельность нормотворчества, правоприменительная практика, законодательство и практика зарубежных стран, а также научно-теоретические взгляды и правовые категории. Исходя из цели и предмета исследования, следует отметить, что хотя на сегодняшний день и проводятся научные исследования понятия «нормотворчество», четкой научной концепции относительно его единого определения не сформировано. В то же время в национальном законодательстве не разработано правовое определение данного понятия и связанные с ним правовые нормы. Те, кто это отметил, демонстрируют актуальность этой темы для юриспруденции сегодня. На основании этого в статье анализируются научные и

правовые теории относительно понятия «нормотворчество», разрабатываются авторские определения данного понятия и его этапов. Также в рамках статьи подробно научно обоснованы различные аспекты данного понятия от понятий «законотворчество» и «законодательство» на основе мнений ученых в данной области, на основе взаимных научных дискуссий и анализа.

Ключевые слова: норма, закон, право, государство, понятие, процедура, экспертиза, законодательство.

Abstract: The main objective of this scientific article is to develop proposals and recommendations aimed at improving the regulatory framework in our country. Also, the subject of research for the scientific article are regulatory documents that legally regulate the activity of rule-making, law enforcement practice, legislation and practice of foreign countries, as well as scientific and theoretical views and legal categories. Based on the purpose and subject of the study, it should be noted that although scientific research on the concept of "rule-making" is currently being conducted, a clear scientific concept regarding its single definition has not been formed. At the same time, the national legislation has not developed a legal definition of this concept and related legal norms. Those who noted this demonstrate the relevance of this topic for jurisprudence today. Based on this, the article analyzes scientific and legal theories regarding the concept of "rule-making", develops the author's definitions of this concept and its stages. Also, within the framework of the article, various aspects of this concept from the concepts of "lawmaking" and "lawmaking" are scientifically substantiated in detail based on the opinions of scientists in this field, based on mutual scientific discussions and analysis.

Keywords: norm, law, right, state, concept, procedure, examination, legislation.

Kirish

So'ngi yillarda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik – huquqiy islohotlar boshqa sohalarda bo'lgani kabi qonunchilik yo'nalishida ham o'tkazilib, o'z samarasini berib kelmoqda. Xususan, qonunchilikdagi "aqlli tartibga solish", "tartibga solish ta'sirini baholash", "huquqiy ekspertiment" va to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiluvchi qonunlarni ishlab chiqish institutlarining shakllanishi milliy normativ-huquqiy bazani yanada takomillashuvda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qayd institusional islohotlarga qaramay hali hanuz yurisprudensiyada sohasida norma ijodkorligi tushunchasi yuzasidan yagona ilmiy va huquqiy yondashuv shakllanmaganligini qayd etish mumkin.

Ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlarda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun-qoidalarni yaratish, ularni o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan norma ijodkorligi faoliyati yuzasidan olim va mutaxassislar tomonidan nazariy yondashuvlar

ilgari surilgan hamda sohaga oid tegishli normalar ishlab chiqilgan.

2. Material va metodlar

Mamlakatimizda norma ijodkorligi faoliyatining ayrim jihatlari M.K.Najimov, R.R.Hakimov, O'.H.Muhammedov, Sh.A.Saydullayev, X.S.Xayitov, A.Q.Xudoyberdiyev, SH.N.Berdiyarov, S.A.Sultanova, D.Sufiyeva, SH.Bahronov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Mazkur ilmiy maqola yuzasidan tadqiqotlar o'tkazishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish usullari qo'llanilgan.

3. Tadqiqot natijalari

Norma ijodkorligi bo'yicha "ijod" tushunchasi haqida ayrim adabiyotlar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbek tilining izohli lug'atida belgilanishicha, "ijod – arabcha so'zdan olingan bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda "yaratish", "kashf etish", "vujudga keltirish" degan ma'nolarni anglatadi. Ijod – badiiy, ilmiy, san'atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati"[1, 176-b]. Demak, ijod va ijodkorlik keng ma'nodagi, serqirra tushunchadir.

Shunga bog'liq ravishda, aksariyat ilmiy-nazariy manbalar va tadqiqot ishlarida "huquq ijodkorligi", "norma ijodkorligi", "qonun ijodkorligi" tushunchalari va ularning bir-biridan farqli jihatlari yuzasidan olimlarning quyidagi ilmiy yondashuvlarini ko'rsatish mumkin.

Xususan, S.V.Sinyukov huquq ijodkorligi va norma ijodkorligi tushunchalari haqida to'xtalib, bular aynan o'xshash tushunchalar ekanligini, birinchi holatda huquqiy normalar yaratilishi, ikkinchi holatda esa huquq butunligiga yaratilishini ta'kidlagan[2, 115-b].

D.N.Kordikning fikricha, "huquq ijodkorligi" tushunchasi kengroq bo'lib, shu jumladan "norma ijodkorligi" tushunchasini ham o'z ichiga qamrab oladi. Norma ijodkorligi tushunchasi qoida tariqasida qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar — RF Prezidenti farmonlari, Hukumat qarorlari, ijro hokimiyati federal organlarning va federatsiya subyektlari ijro hokimiyati organlarining hujjatlarini ishlab chiqish, o'zgartirish yoki bekor qilish bilan bog'liq jarayonni qamrab oladi[3, 82-b].

Rossiyalik nazariyotchi S.V. Polenina "huquq ijodkorligi" tushunchasiga "vakolatli subyektlar tomonidan huquqiy aktlarini belgilangan tartibda shakllantirish va qabul qilishini qamrab olgan jarayon sifatida ta'rif bergan[4, 45-b].

V.L.Kulapovning fikricha, huquq ijodkorligi – bu "davlat hokimiyatining vakolatli organlari tomonidan normativ-huquqiy ko'rsatmalarni alohida tartibda ishlab chiqish, nashr etish, bekor qilish va takomillashtirish" [5, 233-b], hisoblanadi.

Y.L.Korabelnikovaning ta'kidlashicha, norma ijodkorligi tushunchasi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish, o'zgartirish yoki bekor qilish jarayonini qamrab oladi[6, 56-b].

Shunga ko'ra, huquqshunos olimlar T.N.Moskalkova va V.V.Chernikovlar nuqtai-nazariga ko'ra, odatda "huquq ijodkorligi" tushunchasini huquqiy hujjatlarning

ko'rinishlaridan qat'iy nazar qabul qilishning umumiy jarayonini deb tushunishda qo'llaniladi. Huquq ijodkorligini quyidagi ko'rinishlariga, xususan norma ijodkorligi (normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish), o'zini o'zi boshqarish organlarining huquq ijodkorligi, shartnomaviy huquq ijodkorligi (shartnomalar tuzish), sud huquq ijodkorligi (sud hujjatlarini qabul qilish), yakka tartibdagi huquq ijodkorligi (yakka tartibdagi huquqiy hujjatlarni qabul qilish) va boshqalarga ajratish mumkin[7, 35-b].

SH.A.Saydullayevning fikricha, huquq manbasi muayyan rasmiy bir shaklga ega bo'lishi uchun, albatta, bunday manba davlat tomonidan e'tirof etilishi va tegishli huquq ijodkorligini amalga oshiruvchi vakolatli organlar tomonidan rasman e'tirof etilishi, ya'ni mustahkamlab qo'yilishi kerak[8, 56-b].

Bir guruh olimlar, huquq ijodkorligi nisbatan kengroq jarayon bo'lmish huquq yaratishning tarkibiy qismi sifatida qayd etishadi. Ularning fikricha, huquq yaratish - yuridik normani shakllantirish va rasmiylashtirishga qaratilgan jarayon bo'lib, u ancha uzoq vaqt davom etadi. Ushbu jarayon: ijtimoiy vaziyatni tahlil etish, uni huquqiy tartibga solish zaruriyatini anglab yetish; bo'lajak yuridik qoida haqida umumiy tasavvur hosil qilish; yuridik normani ishlab chiqish va qabul qilish kabi harakatlarni qamrab oladi. Huquq yaratishning so'nggi bosqichi huquq ijodkorligini tashkil etadi[9, 216-b].

H.T.Odilqoriyev fikricha, norma ijodkorligi jarayoni – norma ijodkorlarining Konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi normativ-huquqiy hujjatlar yaratishga, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga qo'shimcha va o'zgartirish kiritishga qaratilgan, shuningdek, eskirgan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig'indisi bo'lib, u normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlash, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash, uni muhokama etish va qabul qilishni o'z ichiga oladi[10, 250-b].

Huquqshunos olimlar S.V.Sinyukov, T.N.Moskalkova va V.V.Chernikovlarning yuqorida qayd etilgan huquq ijodkorligi va norma ijodkorligi tushunchalari hamda mazkur tushunchalarining o'zaro farqli jihatlari bo'yicha qarashlariga mazkur tushunchalarni "huquq manbalari nuqtai nazaridan" qo'shilmagan hamda D.N.Kordikning norma ijodkorligi tushunchasi borasidagi fikrini qisman hisobga holda, bizningcha, huquq nazariyasidan kelib chiqib "huquq ijodkorligi", "norma ijodkorligi" va "qonun ijodkorligi" tushunchalarini bevosita huquqning manbalari nuqtai nazaridan tavsiflash maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda, S.V.Boshno, huquq ijodkorligining natijasi o'zida huquq manbalarini taqdim etishi haqida ta'kidlab o'tgan[11, 40-b].

Huquqshunos olim S.S.Alekseyevning fikricha esa, huquq ijodkorligining haqiqatda mavjud bo'lgan natijasi bu yuridik normalardir[12, 233-b].

Bizning fikrimizcha, bajarilishi umummajburiy bo'lgan yurish-turish qoidalarini yaratish, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan faoliyat "huquq ijodkorligi" bo'lib, faqatgina normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, o'zgartirish hamda bekor qilish faoliyatini "norma

ijodkorligi” deb tushunilishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, “qonun ijodkorligi” tushunchasini faqatgina davlatning qonun chiqaruvchi organining ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar yaratishga, amaldagisiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda bekor qilish borasidagi faoliyatini tushunish o'rinli.

Muayyan tashkilot yoki muassasa rahbari tomonidan individual xarakterdagi, rasmiy aniqlikka ega bo'lgan, vakolat beruvchi va majburiyat yuklovchi buyruqlar chiqarishini huquq ijodkorligining ko'rinishlaridan biri, desak bo'ladi.

Qayd etilganlardan kelib chiqib, umummajburiy bo'lgan yurish-turish qoidalarini yaratish, o'zgartirish va bekor qilish nuqtai nazaridan “huquq ijodkorligi” o'z ichiga “norma ijodkorligi” va “qonun ijodkorligi” tushunchalarini qamrab olgan kengroq ma'no kasb etuvchi kategoriya hisoblanadi.

4. Tadqiqot natijalari tahlili

Tadqiqotimiz davomida huquq ijodkorligi, qonun ijodkorligi va norma ijodkorligi tushunchalari yuzasidan hududiy adliya organlari xodimlari orasida (90 nafar respondent) ijtimoiy so'rov o'tkazilgan.

Adliya organlari xodimlariga “Sizningcha, ushbu tushunchalarni birlashtirgan holda yagona tushunishni ma'qullaysizmi yoki bular alohida mazmunga ega kategoriyalarmi?”, degan savol bilan murojaat etganimizda, ularning 67 foizi “Mazkur tushunchalarni alohida tushunilishi maqsadga muvofiq” deb javob berdi. Xodimlarning 17 foizi esa “Ushbu tushunchalarni yagona tushunilishi o'rinli” deb, qolgan 16 foizi “Huquq ijodkorligi” va “Norma ijodkorligi” bir tushuncha” deb javob bergan.

Xorijlik huquqshunos olim YE.Vrublevskiyning fikricha, qonun ijodkorligi tushunchasini qonunchilik tashabbusi bilan boshlanuvchi zarurat stimulaning normativ-hujjatlarning qat'iy loyihasini baholanishiga qadar barcha tartib-taomillar orqali amalga oshiriluvchi jarayon sifatida ko'rish mumkin[13, 189-b].

M.K.Najimov esa norma ijodkorligiga jamiyat va davlatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli subyektlarning huquqiy hujjatlarini belgilangan tartibda shakllantirishi va qabul qilishini qamrab oluvchi jarayon sifatida ta'rif berib, uning quyidagi jihatlariga urg'u berib o'tgan. Norma ijodkorligi – jamiyat va davlatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli subyektlarning huquqiy hujjatlarini belgilangan tartibda shakllantirishi va qabul qilishini qamrab oluvchi jarayon; u yoki bu huquqiy aktning qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan organi (subyektini) aniqlash; qabul qilinishi mo'ljallanayotgan aktning shaklini tanlash; tegishli protsedura doirasida huquqiy aktning tayyorlash, qabul qilish yoki o'zgartirish[14, 17-b].

YE.N.Yarmonovning fikricha, norma ijodkorligi bu – nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, o'z ichiga davlatning huquq ijodkorligi bilan birga jamiyatdagi barcha ijtimoiy normalarni shakllantirish jarayonini qamrab oladi[15, 16-b].

L.A.Morozovanning ta'kidlashicha, “norma ijodkorligi” davlat tomonidan amalga oshirilib, huquqiy normalarni ishlab chiqish va ularni tasdiqlash hisoblanadi[16, 300-b].

A.N.Semyonovix norma ijodkorligini huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning tizimli elementlaridan biri sifatida ko'rsatib o'tgan[17, 767-b].

Qayd etilgan olimlar, YE.N.Yarmonova va L.A.Morozovalarning qarashlarida norma ijodkorligi tushunchasiga bevosita davlat faoliyatiga bog'lab berilganini ko'rishimiz mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda norma ijodkorligi tushunchasi bilan bog'liq nazariy yondashuvlar bo'lsada, milliy qonunchiligimizda sohaga oid normalar tahlillari asosida “norma ijodkorligi tashabbusi”, “norma ijodkorligi faoliyati”, “norma ijodkorligi subyektlari”, tushunchasining aniq huquqiy ta'rifi ishlab chiqilmaganligini ko'rsatish mumkin.

Norma ijodkorligining tashkiliy-huquqiy tabiatidan kelib chiqib ta'kidlash joizki, ushbu faoliyat quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

birinchidan, mazkur faoliyat bevosita huquq manbalaridan biri bo'lgan normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash, ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish hamda manfaatdor organlar va tashkilotlar bilan kelishish, muhokama qilish, qabul qilish (chiqarish) bosqichlarini qamrab olganligi;

ikkinchidan, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan shaxs yoki organ tomonidan qabul qilinishi;

uchinchidan, mazkur faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan qonun ijodkorligi faoliyatini amalga oshirishning qonunchilikda belgilangan tartibda alohida tartib-taomillarining mavjudligi;

to'rtinchidan, ushbu faoliyatda mahalliy aholining ishtirok etishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5505-son Farmoni bilan tasdiqlangan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish Konsepsiyasida “Norma ijodkorligi” tushunchasi berilmagan bo'lsada, mazkur Konsepsiyaning 3-bo'lim 1-bandida norma ijodkorligi jarayoni bosqichlari sifatida normativ-huquqiy hujjatlarni ilgari surish, ishlab chiqish, kelishish, kiritish va ijrosini monitoring qilish kabilar ko'rsatib o'tilgan[18].

Huquqshunos olim V.V.Trofimov, xalqchilik, demokratizm, ilmiylik, qonuniylik, tizimlilik kabilarni huquq ijodkorligining tamoyilari sifatida ko'rsatib o'tgan[19, 40-b].

S.Gusevaning fikricha, huquq ijodkorligi demokratizm, qonuniylik, professionalizm, muntazamlilik kabi tamoyillariga asoslanadi[20, 258-b].

Milliy qonunchilikka ko'ra, norma ijodkorligi faoliyati inson, uning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari rioya etilganlik, qonuniylik, demokratizm, oshkoralik, kelishuv, mantiqiy izchillik, maqsadga muvofiqlik, ilmiy asoslantirilganlik kabi tamoyillariga muvofiq amalga oshirilib, mazkur tamoyillar quyidagicha mazmun kasb etadi:

1. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarga davlat va huquqning barcha sohalarida, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish faoliyatida ham rioya etiladi. Xususan, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi PF-5505-son Farmoniga muvofiq, “Inson manfaatlar — hamma narsadan ustun” prinsipini har tomonlama ro'yobga chiqarishga qaratilgan tizimlashtirilgan qonunchilik bazasini shakllantirish Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalardan biridir.

2. Qonuniylik tamoyili asosida norma ijodkorligi subyektlari tomonidan mazkur faoliyat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Norma ijodkorligida demokratizm tamoyili o'z navbatida xalqning ushbu faoliyatda ishtirok etishini ta'minlab, mazkur ishtirok etish O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida”gi yangi tahrirdagi Qonuniga muvofiq, xalqning qonun va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishi orqali amalga oshiriladi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida ta'kidlab o'tganlaridek: “Barchamiz bir haqiqatni unutmasligimiz kerak: qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart” [21].

4. Norma ijodkorligi faoliyatining oshkorligi tamoyilini qonun hujjati loyihasini muhokamaga qo'yilishida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2012- yil 24-dekabrda “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi yangi tahrirdagi Qonunining 20-moddasiga ko'ra qonun hujjatlar loyihalari jamoatchilik muhokamasiga qo'yiladi. Ushbu muhokama manfaatdor davlat idoralari va olimlar hamda mutaxassislar ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, Qonunning 28-moddasiga ko'ra, normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi kerak va normativ-huquqiy hujjatlarning e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.

5. Norma ijodkorligidagi kelishuv tamoyili. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2012-yil 9-apreldagi 83-mh-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2352, 09.04.2012 yil) bilan tasdiqlangan Uslubiy ko'rsatmalarning 88-bandiga muvofiq, qonun hujjati loyihasi ishlab chiquvchi idora yuridik xizmati tomonidan ko'rib chiqilganidan keyin, manfaatdor idoralarga kelishish (imzolash) uchun yuboriladi.

Mazkur tamoyilga asoslangan kelishish tizimiga muvofiq, O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiyotning alohida sohalari va tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan mablag'lar ajratish bilan bog'liq loyihalar majburiy tartibda tegishli ravishda — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq masalalar bo'yicha — Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va ularning faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq masalalar bo'yicha esa — O'zbekiston Fermerlari kengashi bilan kelishilishi kerak.

6. Mantiqiy izchillik tamoyili asosan norma ijodkorligi

faoliyati mahsuli bo'lgan rasmiy hujjatning mazmunida aks etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2012 yil 9 apreldagi 83-mh-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2352, 09.04.2012 yil) bilan tasdiqlangan Uslubiy ko'rsatmalarning 29-bandiga muvofiq loyihaning tuzilishi, loyihani huquqiy tartibga solish predmetini mantiqan rivojlanib borishi va yoritilishini ta'minlashi lozim. Hajmiga ko'ra normativ-huquqiy hujjat kamayib boruvchi quyidagicha tuzilmaviy birliklarga bo'linadi: bo'limlar, kichik bo'limlar, boblar, paragraflar, bandlar, kichik bandlar va xatboshilar.

7. Bizningcha, maqsadga muvofiqlik tamoyilining mazmunini norma ijodkorligi faoliyatining mahsuli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining tartibga solish sohasiga muvofiq bo'lishi va loyihani qabul qilishga bo'lgan zaruratning mavjudligi tashkil qiladi.

8. Norma ijodkorligining ilmiy asoslantirilganligi tamoyili borasida bir guruh huquqshunos olimlar quyidagi fikrlarni bildirib o'tganlar. Xususan, ilmiylik prinsipi haqida gap borganda, kamida ikki jihat nazarda tutiladi. Birinchidan, huquq ijodkorligi puxta ilmiy strategiyaga tayanishi zarur. Bunday strategiya umumdavlat miqyosida shakllantiriladi. Uni, odatda, davlat yuqori hokimiyat organlari huzuridagi strategik tadqiqotlar institutlari amalga oshiradi. Ikkinchidan, konkret normativ-huquqiy akt matni ustida ish borganda, huquq normasini yaratish va ifodalashda (mazmunan hamda yuridik texnika nuqtai nazaridan) ilmiy tavsiyalar inobatga olinishi lozim. Bundan maqsad - ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda mumkin qadar ko'proq samaraga erishishdir. O'z faoliyatini ilmiy jihatdan ta'minlash uchun huquq ijod etuvchi organlar huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda ishchi guruhlar tarkibiga yetakchi yurist - olimlarni kiritadilar; loyiha yuzasidan xulosa olish uchun uni tegishli ilmiy muassasalarga yuboradilar.

Norma ijodkorligi jarayoni bosqichlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, nazariyotchi olim M.K.Najimov ushbu jarayonni 8 ta bosqichga bo'lgan:

1. Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish tashabbusi.

2. Loyihani ishlab chiqish.

3. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi loyihalarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga joylashtirish.

4. Loyihani yuridik xizmat tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazish.

5. Loyihani manfaatdor organlar va tashkilotlar bilan muvofiqlashtirish.

6. Loyihani adliya organlarida huquqiy ekspertizadan o'tkazish.

7. Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish.

8. Normativ-huquqiy hujjatni ijrochilar hamda aholiga tegishli tarzda yetkazilishini va normativ-huquqiy hujjatning ijrosi ustidan nazoratni tashkil qilish bosqichlarda norma ijodkorligi amalga oshiriladi [22, 17-b].

Bizningcha, norma ijodkorligi faoliyati bosqichlarini normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish uchun asos bo'luvchi dastlabki takliflarni shakllantirish, loyihani

ishlab chiqish faoliyatini rejalashtirish, loyihalarni tayyorlashni tashkillashtirish bilan boshlanishini hisobga olgan holda huquqshunos olim M.K.Najimovning norma ijodkorligi jarayoni bosqichlari to'g'risidagi fikr-mulohazalariga qo'shilmaslik mumkin.

Bizning fikrimizcha, norma ijodkorligi faoliyati bosqichlarini normativ-huquqiy hujjatlar turlaridan kelib chiqib va sohaga oid qonunchilik tahlili asosida quyidagilarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Qonun loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha norma ijodkorligi bosqichlari:

qonun loyihasini ishlab chiqish bo'yicha tegishli qarorni qabul qilish;

qonun loyihasini tayyorlashni tashkillashtirish;

qonun loyihasini tayyorlashda jamoatchilik fikri, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani o'rganish; loyihani ishlab chiqish;

qonun loyihasini taqriz uchun yuborish;

qonun loyihasini ekspertizadan o'tkazish;

qonun loyihasini ishlab chiquvchi(qabul qiluvchi)ning yuridik xizmati va adliya organlari tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazish;

loyihani manfaatdor idoralar bilan kelishish;

qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilishi;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan tayyorlanadigan qonun loyihalarini ishlab chiqish va muhokama qilishda qatnashish;

qonun loyihalarini Oliy Majlisi palatalarida ko'rib chiqishda ishtirok etish.

2. Qonun loyihalariga oid rejalar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig'iga asosan Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayyorlanadigan qonunlar, Prezident qaror, farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qaror hamda farmoyishlari loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha norma ijodkorligi bosqichlari quyidagilardan iborat:

loyihani ishlab chiqish uchun asos bo'luvchi dastlabki takliflarni shakllantirish;

norma ijodkorligi faoliyatini rejalashtirish;

loyihalarni tayyorlashni tashkillashtirish;

loyihani ishlab chiqish; loyiha ishlab chiquvchisi yuridik xizmati tomonidan loyihani huquqiy ekspertizadan o'tkazish;

loyihani jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish;

loyihani manfaatdor idoralar bilan kelishish jarayoni;

loyihani adliya organlarida huquqiy ekspertizadan o'tkazish;

loyihani tasdiqlash uchun kiritish.

3. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha norma ijodkorligi bosqichlari:

loyiha tayyorlanishini tashkil etish;

loyihani ishlab chiqish;

loyihani kelishish;

idoraviy normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish;

mazkur turdagi hujjatning huquqiy ekspertizasi, davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va kuchga kirishi.

4. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-

huquqiy mazmundagi qarorini ishlab chiqish bo'yicha norma ijodkorligi bosqichlari:

loyihani tayyorlashni tashkillashtirish;

loyihani ishlab chiqish;

mahalliy davlat hokimiyati organi yuridik xizmati tomonidan qaror loyihasini huquqiy ekspertizadan o'tkazish;

loyihani tegishli idoralar bilan kelishish;

hududiy adliya organlari tomonidan loyihani huquqiy ekspertizadan o'tkazish;

loyihani mahalliy davlat hokimiyati organiga yuborish.

Olib borilgan izlanishlarga asosanib, bizningcha, norma ijodkorligi tushunchasiga quyidagicha huquqiy tavsif berish maqsadga muvofiqdir:

“Norma ijodkorligi – bu normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish uchun asos bo'luvchi dastlabki takliflarni shakllantirish, loyihani ishlab chiqish faoliyatini rejalashtirish, loyihalarni tayyorlashni tashkillashtirish, loyihani ishlab chiqish, loyihani huquqiy va boshqa turdagi ekspertizalardan hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish, loyiha muhokamasi, loyihani manfaatdor organlar va tashkilotlar bilan kelishish, loyihani ko'rib chiqishda ishtirok etish, loyihani ko'rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash uchun kiritish kabi jarayonlarni qamrab olgan faoliyat”.

Huquqshunos olim M.K.Najimovning fikricha, norma ijodkorligini turlarga ajratishda quyidagilar mezon bo'lib hisoblanadi: “norma ijodkorligi subyektlari, ya'ni muayyan akti qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan shaxs yoki organ; norma ijodkorligi aktlarini qabul qilish tartib-taomillari (qonun ijodkorligi jarayoni, yakka yoki jamoa qarori); normativ-huquqiy hujjatlar turlari (qonunlar, qonunosti hujjatlari) va boshqalar” [23, 19-b].

Z.M.Islomov esa, huquq ijodkorligining xalqning bevosita huquq ijodkorligi, davlat organlarining huquq ijodkorligi, mansabdor shaxslarning huquq ijodkorligi kabi turlarini ko'rsatib o'tgan[24, 213-b].

5.Xulosalar

Bizningcha esa, qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish, o'zgartirish va bekor qilish jarayoni nuqtai nazaridan norma ijodkorligi faoliyatini asosan ikki turga, ya'ni qonun ijodkorligi va qonunosti hujjatlari ijodkorligiga bo'lish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, barcha turdagi normativ-huquqiy hujjatlarga taalluqli bo'lgan “norma ijodkorligi texnikasi” tushunchasiga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, huquqiy-texnik rasmiylashtirish, qabul qilishda qo'llaniladigan qoida, usul va vositalar majmui deb ta'rif berish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston qonunchiligida norma ijodkorligi sohasida keng foydalaniladigan «norma ijodkorligi», «norma ijodkorligi tashabbusi», «qonunchilik tashabbusi», «norma ijodkorligi texnikasi», «norma ijodkorligi subyektlari» tushunchalari mavjud emas.

Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi tahlili mazkur tushunchalarning qonunchiligida belgilanganligini ko'rish mumkin.

Shunga ko'ra, huquqni qo'llash amaliyotdan kelib chiqib, qayd etilgan tushunchalarni milliy qonunchilikda

belgilash taklif qilinadi.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillarni bayon etilishi o'z navbatida norma ijodkorligi faoliyati sifatini oshirish va yagona huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlashga xizmat qiladi.

References:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. / O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. / Tahrir hay'ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq.: O'zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 176.

2. Qarang: Sinyukov S.V. O ponyatii pravotvorchestva // Izvestiya Saratovskogo universiteta. 2011. T.11. Seriya “Ekonomika. Upravleniye. Pravo”. Vip.2. – S.115-116.

3. Kordik D.N. Ponyatiye i soderjaniye normotvorcheskoy deyatel'nosti federalnix organov ispolnitel'noy vlasti: teoreticheskiye i pravoviy aspekti // Vestn. Mosk.un-ta. Ser. 11. Pravo. 2015. № 5.- S.82.

4. Polenina S.V. Zakonotvorchestvo v Rossiyskoy Federatsii. – M., 1996. – S.45.

5. Kulapov V.L. Problemi teorii gosudarstva i prava. Saratov, 2006, – S. 233-234.

6. Korabelnikova Y.L. Rol vedomstvennogo normotvorchestva v gosudarstvennom pravotvorchestve // Setevoye izdaniye “Akademicheskaya misl” № 1 (6) 2019. – S. 56.

7. Moskalkova T. N., Chernikov V. V. Normotvorchestvo: nauch.-prakt. posobiye. M., 2014. - S. 35.

8. Saydullayev SH. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –Toshkent: TDYUI, 2018. – B.56.

9. Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrirlar H.B.Boboyev, H.T.Odilqoriyev -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000.- B.216.

10. Odilqoriyev H.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. –T.: Sharq, 2002. –B.250.

11. Boshno S.V. Formi rossiyskogo prava. M.: Pravo i zakon, 2004. - S. 40.

12. Alekseyev S.S. Obshaya teoriya prava. M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2008. - S. 233.

13. Qarang: Wróblewski J. A Model of Rational Law-Making // ARSP: Archiv für Rechts- und Sozialphilosophie / Archives for Philosophy of Law and Social Philosophy, Vol. 65, No. 2 (1979), p. 189. (<https://www.jstor.org/stable/23679192>)

14. Najimov M.K. Norma ijodkorligi. Darslik. –Toshkent: TDYUU, 2018. – B. 17.

15. Yarmonova YE.N. Otlichiye normotvorchestva ot pravotvorchestva kak odna iz osnovnix problem yurisprudensii // Nauchno-metodicheskij elektronniy jurnal “Konsept”. – 2016 g. – № 16. – 0,5 p. I. – URL: <http://ekoncept.ru/2016/76189.htm>.

16. Morozova L. A. Teoriya gosudarstva i prava: ucheb. – M., 2008. – S. 300.

17. Qarang: Semyonov A.N. Normotvorcheskiye oshibki kak znachimiy faktor pravoprimenitel'nogo riska. //

Yuridicheskaya tekhnika. 2019. № 13. – S.767.

18. www.lex.uz

19. Trofimov V.V. Pravoobrazovaniye, pravotvorchestvo, pravotvorcheskaya politika. // Pravotvorcheskaya politika v sovremennoy Rossii., M.: Prospekt, 2016,- S.40.

20. Guseva S. Pravotvorchestvo: osnovniye ponyatiya i prinsipi // Vestnik ekonomicheskoy bezopasnosti. № 6 / 2016. – S.258.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (22.12.2017) / <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>

22. Najimov M.K. Norma ijodkorligi. Darslik. –Toshkent: TDYUU, 2018. – B. 17.

23. Najimov M.K. Norma ijodkorligi. Darslik. –Toshkent: TDYUU, 2018. – B. 19

24. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2007. – B.513.